

Qadambayeva Ozoda Umid qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: qadamboyevaazoda2@gmail.com

Tel: +998907371811

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'muriy huquqbuzarlik mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibi, huquqbuzarlikni istisno qiluvchi holatlar, oldini olish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, ijtimoiy xavfli qilmish, zarar, subyekt, ayb, harakat va harakatsizlik, ma'muriy javobgarlik

Davlat boshqaruvi sohasida sodir etiladigan va ko'p uchraydigan huquqbuzarlik ko'rinishlaridan biri bu – ma'muriy huquqbuzarlikdir. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi keltirilgan: Bunga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik– bu qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda ma'muriy huquqbuzarlik quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. ma'muriy huquqbuzarlik – ijtimoiy zararli ya'ni uning sodir etilishi jamiyat va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi;
2. ma'muriy huquqbuzarlik – huquqqa xilof harakat hisoblanadi, ya'ni bunday xatti-harakatlarni sodir etish qonunchilik hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan;
3. ma'muriy huquqbuzarlik qilmishdir. Ma'muriy huquqbuzarlik bir yoki bir necha insonlarning ongli va irodali harakati yoki harakatsizligida sodir etilishi mumkin;
4. ma'muriy huquqbuzarlik – jismoniy shaxs tomonidan sodir etiladigan qilmishdir. MJtK binoan, ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti sifatida faqatgina jismoniy shaxslar namoyon bo'lishi mumkin;
5. ma'muriy huquqbuzarlikda aybning mavjudligi, ya'ni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan ongli, irodali qilmish hisoblanadi. MJtK ning 11-moddasiga muvofiq, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarining kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi;

6. ma'muriy huquqbuzarlik jazoga sazovor qilmishdir ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilik hujjatlariga binoan, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

Har qanday huquqbuzarlik tarkibi singari ma'muriy huquqbuzarlikning ham quyidagi tarkibiy elementlari mavjud:

- Obyekt
- Subyekt
- Obyektiv tomon
- Subyektiv tomon

Ma'muriy huquqbuzarlikning **obyekti** – bu ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Masalan: –fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar;

–mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;

–tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar;

–jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar kabi;

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma'muriy huquqbuzarlikning **subyeksi** hisoblanadi. MJtK ning 13-moddasida Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortilishi keltirib o'tilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlikning **obyektiv tomoni** – ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Harakat insonning faol xulq-atvori bo'lsa, harakatsizlik passiv xulq-atvor sanaladi. Shuningdek, ushbu zaruriy belgilardan tashqari, obyektiv tomonning fakultativ belgilari ham mavjud: bular, qilmishni sodir etish vaqti, joyi, uslubi, takroran sodir etish va hokazo.

Ma'muriy huquqbuzarlikning **subyektiv tomoni** – bu huquqbuzarlik subyeksi (jismoniy shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik aybning ikki shaklida ham, ya'ni qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin.

Jinoyat qonunchiligi kabi ma'muriy huquqbuzarlikni ham istisno etuvchi holatlar mavjud: 1) zaruriy mudofaa; 2) oxirgi zarurat.

Zaruriy mudofaa– MJtK da yoki ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxsni yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

Zaruriy mudofaada bartaraf qilinadigan tajovuz g'ayrihuquqiy bo'lishi, ya'ni kodeksning maxsus qismida yoki boshqa nazariy hujjatda nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

Oxirgi zarurat–huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-AVGUST

ANDIJON, 2024

o'sha holatda boshqacha choralar bilan bartaraf etib bo'lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi. Masalan: yong'inni tugatish uchun suvdan foydalanish qoidalarini buzish (MJtK 74-moddasi) yoki odamlarni hayvonlar hujumidan saqlash chun ba'zan aholi punktida o'q otishga zarurat tug'iladi, bu esa kodeksning 185-moddasida nazarda tutilgan xatti-harakatni vujudga keltiradi.

Oxirgi zaruratning asosiy shartlaridan biri - yetkazilgan zarar bartaraf etilgan zarardan kamroq ahamiyatli bo'lishi lozim.

Xulosa sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, MJtK da keltirilganidek, ma'muriy huquqbuzarlikni oldini olish uchun ushbu huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'muriy huquq: Darslik / N. T. Ismoilov, O'. X. Muxamedov, A. S. Tursunov va boshq.; SH. T. Ikramov va I. A. Xamedov tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. 491 b.
2. <https://lex.uz/acts/-97664>
3. Ўзбекистон Республикасида маъмурий жавобгарлик: Маърузалар курси / Ў. Х. Мухамедов, Н. Т. Исмоилов, Д. Д. Бабаев Ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. –320 б.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ma%CA%BCmuriy_huquqbuzarlik